

## INTEGRATSIYALANGAN TA'LIM ORQALI TALABALAR KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH

**Komiljonova Guluzraxon Nizomjon qizi**

*Qo'qon universiteti Ta'lim kafedrası katta o'qituvchisi*

*komiljonovaguluzra6@gmail.com*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan integratsiyalashuv jarayonlarining nazariy, metodik va amaliy jihatlari chuqur tahlil etilgan. Ayniqsa, integratsiyaning talabalarining bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirishdagi o'zini alohida yoritilib, fanlararo bog'liqlik orqali ta'lim mazmunining boyishi va chuqurlashuvi ilmiy asoslangan holda asoslab berilgan. Integratsiya tushunchasining kelib chiqishi, tarixiy rivojlanishi va pedagogik mohiyati tahlil qilinib, ilg'or xorijiy va mahalliy pedagoglarning konseptual qarashlariga tayangan holda tizimli yondashuv taklif etiladi.

Fanlararo integratsiyaning o'ziga xos jarayoniga samarali tatbiq etish natijasida talabalar ongida olamning yaxlit tasviri shakllanadi, ularning tahliliy fikrlash, muammoli vaziyatlarni hal etish va kasbiy faoliyatga tayyorlanish darajasi oshadi. Maqolada, shuningdek, integratsiyaning amaliy shakllari, uni ta'lim jarayonida joriy etish mexanizmlari, raqamli va innovatsion yondashuvlar bilan uyg'unlashtirilishi muhim jihatlari sifatida ko'rib chiqilgan. Xulosa o'rnida, integratsiyalashuvning ta'lim samaradorligiga ta'siri, shaxsiy va kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishdagi roli, zamonaviy pedagogikaning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilgan.

**Kalit so'zlar:** ta'lim, bog'lanish, integratsiya, innovatsion yondashuv, fanlararo aloqadorlik, dars, ta'lim oluvchi, ta'lim sifati, boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi, talabalar, kasbiy kompetensiya, o'quvchilarning bilim va ko'nikmalari, pedagogik jarayon, o'quvchi, ijodiy fikrlash.

**Kirish.** Ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy qismini esa, albatta, oliy ta'lim tizimidagi islohotlar tashkil etadi. O'zbekistonda so'nggi yillarda ta'limda integratsiyalashuv tamoyillarini joriy etish bo'yicha qator amaliy ishlar olib borilmoqda. Jumladan, umumta'lim maktablari uchun yangilangan Davlat ta'lim standarti (DTS) va o'quv dasturlarida fanlararo integratsiya alohida e'tiborga olinmoqda. Bu standartlar asosida darslarda talabalarda tahlil qilish, solishtirish, umumlashtirish, real hayotiy misollar bilan bog'lash kabi faol aqliy amaliyotlar kuchaytirilmoqda.

Ta'limni rivojlantirish o'qitish jarayonini to'g'ri tashkil etish bilan bevosita bog'liq. Ta'limni munosib raqamli texnologiyalar, innovatsiya va integratsiyalar bilan boyitish davr talabi bo'lib qolmoqda. Umuman olganda, ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan mana shunday istiqbolli vazifalar o'zining dolzarbligi hamda amaliy ahamiyati bilan boshqa sohalaridagi islohotlardan aslo qolishmaydi. Chunki ushbu sohadagi islohotlarni yanada keng ko'lamda davom ettirish pedagogikaning kelajagini belgilab beradi.

Ta'limning barcha bosqichlarida fanlarning integratsiyalashuv jarayoni shuni ko'rsatadiki, fanlarning o'qitilishida ularni o'zaro aloqadorlik jihatlaridan maqsadli foydalanish, darslarni pedagogik va metodik jihatdan to'g'ri tashkil qilish, har bir fanni o'qitilishini mazmunli bo'lishini va samarali tashkil etishni kafolatlaydi.

“Integratsiya” so‘zi lotincha *integratio* – *tiklash, to‘ldirish, “integer”* – *butun* so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, o‘zaro bog‘langan holda rivojlantirish, bir butun qilib birlashtirmoq, yaxlit holga keltirmoq deganidir. Integratsiya turli xil qism va elementlarni bir butunlikka birlashtirish jarayonidir [ O‘quv jarayoni integratsiya tizimini takomillashtiradi, kamchiliklarini bartaraf etadi, predmetlar orasidagi aloqalar va bog‘liqliklarni chuqurlashtiradi, bunday yondashuvlar differensiya va integratsiya orasidagi munosabatlarni tushunishga tayanadi. Pedagogikaning maqsadi bir xil maqsad vazifalarga ega bo‘lgan turli fanlarning element va qismlarini bir butunga birlashtirishga yo‘naltirilgan bo‘lib, u integratsiyani amalga oshirishda o‘qituvchilarga yordam berishdir.

**Asosiy qism.** Hozirgi kunda “Integratsiya” tushunchasining aniq ta’rifi metodik adabiyotlarda, bu mavzu bo‘yicha izlangan tadqiqotchilar tomonidan bir-biriga o‘xshash bo‘lgan ta’riflar berilgan. Integratsiya jarayonini o‘rganishda didaktik olim Yan Amos Komenskiy quyidagi fikrlarini bildirgan: “Bir-biri bilan bog‘liq bo‘lgan hamma narsa, xuddi shunday holda o‘rganilishi kerak”. Fanlararo aloqadorlik g‘oyasiga ko‘pchilik pedagoglar qattiq yondashib, uni rivojlanishi va umumlashtirilishiga hissa qo‘shganlar. D.Lokk g‘oyasiga ko‘ra: “Ta’lim mazmunining aniqlanishida bir fan boshqa fanlar elementlari va faktlari bilan to‘ldirilishi kerak”. Xuddi shuningdek, I.V.Pestalossi o‘zining didaktik maqolasida o‘quv darsliklaridagi fanlararo bog‘liqlik masalasiga keng to‘xtalib o‘tar ekan: “Bir-biri bilan bog‘liq fanlarni ongingga keltir, ularni tabiatdagi uzviy bog‘liqlik holatida ekanini angla” – deydi. Pestalossi esa bir fanning boshqa bir fandan uzoqlashuvi xavfliligini ta’kidlaydi. Integratsiyaning OTMda ta’lim-tarbiya jarayoniga ta’siri juda ko‘p pedagog olimlar tomonidan ko‘rib chiqilgan. Jumladan, I.D.Zvernov, M.A.Danilov, V.N.Maksimova, S.P.Baranov, N.M.Skatkin; metodist olimlar M.R.Lvov, V.G.Goreskiy, N.N.Svetlovskaya, Yu.M.Kolyagina, G.N.Pristupa va boshqalar.

Integratsiyani uslubiy hodisa sifatida e’tirof etgan I.Kalojvari va L.Pechnikovalar “Qanday qilib integratsiyalashgan darsni tashkillash mumkin?” nomli maqolasida ta’kidlashlaricha: “Integratsiyaning kelajagi porloq. Bu usul natijasida o‘quvchilar ongida olamning faol va ko‘p tomonli tasviri shakllanadi. Talabalar olgan bilimlarini amalda faol foydalanishga boshlashadi. Chunki bilimlari osonroq amaliyotga xos xususiyatlarni aniqlaydi, yangicha fikrlay boshlaydi, fanni tez o‘zlashtiradi, uning boshqa fanlarga bo‘lgan munosabatini ravshanlashtiradi”.

N.K.Chapayev integratsiyaning tanlangan yo‘nalishlari integrativ jarayon larkibi va strukturasini belgilaydi. Integrativ jarayon tarkibi deganda, o‘zaro nloqadorlikka kirishadigan va yangi yaxlit birlikni hosil qiladigan obyektlar yig‘indisi tushuniladi. V.S.Bezrukova ta’limning muhim muammolaridan biri bilimlarni integratsiyalash va tabaqalashtirish masalalari ishlab chiqilgan. Olimning fikricha, integratsiya – turli

bilimlar tizimi o'rtasida tarkibiy bog'lanishlarni o'rnatish, ularni umumlashtirish, o'quvchilarning tabiat va jamiyat haqidagi yaxlit tasavvurlarni shakllantirish uchun xizmat qiladi.

Psixolog E.N. Kabanova – Millerning aytishicha, “O'qituvchiga hali uchramagan vazifa asosida bilim, ko'nikma va qobiliyatlarni mustaqil ko'chirilishi aqliy rivojlanishning muhim ko'rsatkichidir”. U o'zining “Boshlang'ich sinflarda ta'limni integratsiyalash tajribasi” ishida maktab ta'limini integratsiyalashning muhimligiga e'tiborini qaratsa, L.P. Elenko integratsiya darsni samarali qilish vositasi, predmetlar aloqalarini yangi pog'onalarga ko'tarish shakli, deb hisoblaydi.

Ta'lim jarayonida integratsiya talabalarning o'quv-bilish faoliyatini faollashtiradi. Bunda, o'quvchi o'z faolligini fan bilimlarini mavjud bo'lgan noma'lum munosabatlarni izlashga yoki aniq o'rnatilgan fanlararo aloqadorlik asosida yangi tushunchalarni shakllantirishga xizmat qiladi. Ushbu jarayonda fanlararo aloqadorlik ta'minlangan sharoitda o'quvchilarning egallagan bilimlari samarali rivojlanishi bilan bir qatorda ularning idrok etish qobiliyati, faolliklari, qiziqishlari, aqliy intellektual imkoniyatlari ortishiga erishiladi. O'quv jarayonida fanlararo aloqadorlikni turli o'quv fanlari bo'yicha o'quv dasturlari, darsliklar mutanosibligini ta'minlovchi didaktik imkoniyat sifatida tushunish lozim.

Ta'lim tizimini takomillashtirishda integratsiyalashuvi ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Unda ta'lim oluvchilarning chuqur bilimga ega bo'lishlari va balki ko'nikma-malakalarni chuqur egallash orqali kasbiy tayyorgarligini rivojlantirishlari davr talabiga aylangan. O'quv faoliyatini samarali tashkil qilish, dars jarayonida turli xil shakl, metod va vositalardan o'z o'rnida to'g'ri foydalanish, ularni uzviy bog'liq holda qo'llay olish ta'lim samaradorligining muhim omillaridan biridir. Bu esa integratsiyalashgan ta'lim orqali amalga oshiriladi. Integratsiyalash mobaynida bir-biriga bog'liqlik hajmi oshadi va tartibga tushadi, shu tizim qismlarning ishlashi va o'rganish ob'ektlarining yaxlitligi tartibga solinadi.

Integratsiyaning shakllari va mexanizmlari keng qamrovli. Jahon tajribasi ko'rsatadiki, integratsiya jarayonlarning shakllanishi va rivojlanishi nisbatan uzoq davrni qamrab oladi. Bu jarayonlarning amal qilish mexanizmi esa mantiqiy ketmaketlikda, bosqichma-bosqich shakllanadi. Keng miqyosli integratsiya va globallashtirish jarayonlari jahon taraqqiyotining hozirgi paytdagi muhim xususiyatlaridan biri ekanligini etirof etgan holda, ularning kuchli mafkuraviy tasir o'tkazish vositasi ekanini ham unutmaslik darkor.<sup>50</sup>

Ta'lim mazmunidagi uyg'unlikni ta'minlash muammolari ham integratsiyalashning shug'ullanadigan sohasi hisoblanadi. U tushunchalarni umumlashtirishni o'rgatishni, ta'lim-tarbiyada esa bilimlar, tushunchalar, ko'nikma va malakalarni shakllantirishni umumlashtirib, qonun yoki qoida mezondir. Bunda ta'lim mazmunidagi barcha tashkil etuvchi elementlar majmuasini – bilim, ko'nikma, malaka, me'yoriy, pedagogik tizimlarni o'zida mujassamlab, bilimlarni tizimlashtirishni tashkil etish, o'quvchilarda har xil

<sup>50</sup> <https://openidea.uz/index.php/idea/article/download/1272/1938/1155>



fanlarda o'tiladigan va texnologik jarayonlarda sodir bo'ladigan hodisalar, tushunchalar, g'oyalar, nazariyalar orasidagi o'zaro integratsiya va har tomonlama bog'lanish borligini o'rnatish ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat.

Integratsiyalashgan ta'lim jarayoni shuningdek, o'quvchilarning mustaqil fikrlash, muammolarni hal qilish va yangi bilimlarni yaratish qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Bu jarayon ta'limning interfaol, kommunikativ va tadqiqot yo'nalishlarini kuchaytiradi, shuningdek, o'quvchilarda o'zlashtirilgan bilimlarni turli kontekstlarda qo'llash imkonini beradi. Shunday qilib, integratsiya nafaqat fanlararo bog'lanishni ta'minlash, balki shaxsning kognitiv va ijodiy salohiyatini kengaytirishga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, integratsiya jarayonida o'qituvchilarning metodik va pedagogik yondashuvlari ham tubdan takomillashadi. Ular darslarni rejalashtirishda fanlararo muvofiqlikni hisobga olgan holda, ta'lim mazmunini uyg'unlashtirish, samarali interaktiv metodlarni qo'llash va o'quvchilarning faol bilim olishini rag'batlantirishga intilishadi. Shu bilan birga, integratsiyalashgan darslar o'quvchilarni o'z bilimlarini tizimli ravishda mustahkamlash va yangi bilimlar o'rganishga doimiy tayyor bo'lishga o'rgatadi. Integratsiyalashuvning ta'lim jarayoniga kiritilishi esa zamonaviy ta'lim tizimida innovatsion yangiliklar joriy etish imkoniyatlarini yaratadi. Bu esa ta'lim sifatini oshirish, o'quvchilarning individual rivojlanish ehtiyojlarini qondirish va ularni kelajak kasbiy faoliyatlariga samarali tayyorlashga xizmat qiladi. Shunday qilib, ta'limdagi integratsiya yondashuvi nafaqat fanlarning o'zaro bog'lanishini kuchaytiradi, balki ta'lim jarayonini chuqur va kompleks tarzda rivojlantirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Kelajakda integratsiyalashgan ta'lim tizimi yanada kengayib, yangi pedagogik texnologiyalar, raqamli vositalar va interfaol platformalarning joriy etilishi orqali yanada samarali va zamonaviy shaklga ega bo'lishi kutilmoqda. Bu esa o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini amaliyotga moslashtirish, ularning ijodiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan, ta'limda integratsiyaning yanada chuqurlashuvi va takomillashuvi ta'limning barcha bosqichlarida doimiy e'tibor markazida bo'lishi zarur. Bunda o'qituvchilar, metodistlar va ta'lim boshqaruvchilari hamkorlikda ishlashlari, zamonaviy pedagogik yondashuvlarni doimiy ravishda yangilab borishlari, hamda o'quvchilarning bilim olish jarayonini samarali tashkil etishlari talab qilinadi.

Boshlang'ich bosqichlardayoq fanlarni integratsiyalash dars samaradorligini oshiradi, vaqtdan unumli foydalanishga olib keladi, darsni chuqur o'zlashtirishga yordam beradi. Oliy ta'lim talabalariga o'qitilayotgan fanlar o'zaro bog'liqlik holda tashkil etib borilsa, ularda bilim, ko'nikmalari oshib, kutilgan natijani berishi va albatta, o'z kasbining yetuk mutaxassislari bo'lib yetishadi.

Boshlang'ich sinflarda fanlar o'rtasidagi bog'liqlikni ta'minlash orqali ta'lim jarayoni yanada mantiqiy va tizimli kechadi. Bu esa o'quvchilarning nafaqat alohida fanlardan bilim olishlarini, balki ularni amaliy hayotga qo'llash ko'nikmalarini shakllantirishga yordam beradi. Shu tariqa, bolalar yoshligidan o'rganish jarayonida yangi bilimlarni bir-biri bilan bog'lash va ularni kundalik hayotda qo'llash qobiliyatini egallaydilar.

Shuningdek, boshlang'ich ta'limda fanlarni integratsiyalash o'qituvchilarga darslarni samarali rejalashtirish, metodik jihatdan boy va ijodiy yondashuvlarni qo'llash imkonini beradi. Bu esa ta'lim sifatini yaxshilashga, bolalarning individual ehtiyojlari va qobiliyatlarini inobatga olishga xizmat qiladi. Natijada, boshlang'ich ta'lim bosqichida fanlarning integratsiyalashuvi bolalarning bilimlarini mustahkamlash, ularning intellektual, ijtimoiy va shaxsiy rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatadi hamda kelajakda muvaffaqiyatli ta'lim olishlari uchun mustahkam poydevor yaratadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki, ta'limda integratsiyani kuchaytirish – nafaqat zamonaviy o'quvchi shaxsini shakllantirish, balki bilimlar tizimini uzviylashtirib, uni turli yo'nalishlarda tatbiq eta oladigan mutaxassisni yetishtirish uchun ham zaruriy shartdir. Shu bois, fanlararo integratsiya kelgusida ta'lim mazmunining chuqur va sifatli bo'lishida, shuningdek, pedagogik amaliyotda innovatsion yondashuvlarning keng tatbiq etilishida hal qiluvchi o'rin tutadi. Shuning uchun, ta'lim jarayonida fanlararo integratsiya konsepsiyasini yanada rivojlantirish, boshlang'ich sinflardan boshlab darslarni integratsiyalashgan usulda tashkil etish ta'lim sifatini oshirishda, o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini chuqur va tizimli egallashida muhim ahamiyatga ega. Ushbu yondashuv pedagogik jarayonni yanada samarali, qiziqarli va mazmunli qilishi bilan birga, ta'lim tizimining barcha bosqichlarida uzviylik va izchillikni ta'minlaydi.

**Xulosa.** Shunday qilib, ta'limda fanlararo integratsiyani rivojlantirish va keng tatbiq etish nafaqat bilim olish jarayonini yaxshilash, balki yosh avlodni kompleks va ijodiy fikrlay oladigan, kasbiy va hayotiy ko'nikmalarga ega bo'lgan yetuk shaxslar sifatida shakllantirishga xizmat qilishi aniqdir.

Xulosa qilib aytganda, ta'lim tizimida fanlararo bog'lanishlar muhim sanaladi. Oliy ta'limda darslarni integratsion tarzda tashkil etilsa, talabalarning o'zlashtirish ko'rsatkichlari, bilim, ko'nikmalari sezilarli darajada ortadi va yetarli darajada bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ish faoliyatlarini muvaffaqiyatli olib borishlarini kafolatlaydi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mavlyanova. Raxima Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi, innovatsiya va integratsiyasi. O'quv qo'llanma. R.Mavlyanova, N.Raxmankulova. – O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. – Toshkent. Voris nashriyoti, 2013. – 240 b.

2. B.X.Xodjayev.Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Darslik. - T.: «Sano-standart» nashriyoti, 2017-yil, 416-bet.

3. Boshlang'ich sinflarda integratsiyalashgan ta'limni takomillashtirish, O'quv qo'llanma. - T.: "Tamaddun", 2022. - 125 b. 6. Z. Boboqulov, S.Sanayev, X. Xonqulov. Talimning zamonaviy pedagogic texnologiyalari. O'quv qo'llanma. Samarqand – 2022. 171-b

4. Madinabonu Shuxratjon qizi, & Esonaliyeva Guluzra Komiljonova. (2023). Inson qadri va barkamol avlod shakllanishida pedagogikaning o'rni. Qo'qon universiteti xabarnomasi, 1(1), 788–789. <https://doi.org/10.54613/ku.v1i1.717>
5. Komiljonova, G. N. qizi. (2023). Fanlararo bog'lanish asosida boshlang'ich ta'limni amalga oshirishning o'ziga xos xususiyatlari. Educational Research in Universal Sciences, 2(12), 198–201. Retrieved from <http://erus.uz/index.php/er/article/view/5505>
6. Diyoraxon, S., & Komiljonova, G. (2023). Boshlang'ich ta'limda chet el o'quvchilarini baholash mezonlari va samarali taqdirlash. Qo'qon universiteti xabarnomasi, 783-785.
7. Abduraxmonova, N. A. qizi. (2023). Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ijodiy faoliyatini rivojlantirish pedagogik muammo sifatida. Educational Research in Universal Sciences, 2(12), 208–211. Retrieved from <http://erus.uz/index.php/er/article/view/5507>
8. Kalendarova Zaravshan Kalbaevna. (2021). Primary education - the foundation of general secondary and higher education. Conference Zone, 330–332. Retrieved from <https://www.conferencezone.org/index.php/cz/article/view/482>
9. Abduraxmonova, N. A. qizi. "Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ijodiy faoliyatini rivojlantirish pedagogik muammo sifatida". Educational Research in Universal Sciences, vol. 2, no. 12, Dec. 2023, pp. 208-11, <http://erus.uz/index.php/er/article/view/5507>.
10. Nigoraxon, A., & Mohlaroy, A. (2024). Boshlang'ich ta'limda o'quvchilar ijodiy faoliyatini tashkil etish texnologiyasi. Yosh Tadqiqotchi Jurnal, 3(1), 83-87.
11. Integratsiya negizida boshlang'ich sinf o'quvchilarining fikrlash qobiliyatini rivojlantirish. Z.K.Kalendarova (Author) 2024-12-07.
12. Kalendarova Zarafshan Kalbaevna, & Raximova Komila. (2024). Boshlang'ich sinf o'quvchilarida bilish qobiliyatini rivojlantirish. University Research Base, 274–277. Retrieved from <https://scholar.kokanduni.uz/index.php/rb/article/view/89>
13. Nigoraxon, Abduraxmonova, and Alijonova Mohlaroy. "Boshlang'ich ta'limda o'quvchilar ijodiy faoliyatini tashkil etish texnologiyasi." Yosh Tadqiqotchi Jurnal 3.1 (2024): 83-87.
14. Z.K. Kalendarova. (2025). Developing students' thinking ability through the use of innovative technologies in primary education. Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research, 12(04), 125–129. Retrieved from <https://www.eijmr.org/index.php/eijmr/article/view/2859>